

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARIDA KREATIV FAOLIYATNI TAKOMILLASHTIRISHNING METODIKASI

Ibraimova Dilfuza Xushboqovna

Termiz davlat pedagogika instituti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20566272>

Annotatsiya Mazkur tadqiqotda bo'lajak boshlang'ich sinif o'qituvchilarida kreativ faoliyatni takomillashtirishning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. Kreativlikning pedagogik faoliyatdagi o'rni, uni rivojlantirishga xizmat qiluvchi innovatsion pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy ta'lim metodlarining ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil fikrlashi, muammolarga ijodiy yondashuvi, yangi g'oyalar yaratish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan texnologiyalar va ularning samaradorligi ochib berilgan. Tadqiqot natijalari kreativ kompetensiyalarni shakllantirish orqali ta'lim sifatini oshirish imkoniyatlarini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: kreativlik, kreativ faoliyat, bo'lajak o'qituvchi, boshlang'ich ta'lim, pedagogik texnologiya, innovatsion ta'lim, kreativ kompetensiya, ijodiy fikrlash, pedagogik mahorat, ta'lim sifati, innovatsion yondashuv, kasbiy rivojlanish.

Kirish Jahon ta'lim tizimida yuz berayotgan tub o'zgarishlar pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligiga yangi talablarni qo'yimoqda. Zamonaviy maktab o'qituvchisi nafaqat o'z fanini mukammal bilishi, balki o'quvchilarda mustaqil va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish olishi ham zarur. Shu nuqtai nazardan, bo'lajak boshlang'ich sinif o'qituvchilarida kreativ faoliyatni rivojlantirish va takomillashtirish dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi.

Boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilarning shaxs sifatida shakllanishida muhim o'rin tutadi. Ushbu bosqichda faoliyat yuritadigan o'qituvchining kreativ salohiyati ta'lim jarayonining samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri sanaladi. Kreativ o'qituvchi o'quv jarayonini qiziqarli tashkil etadi, innovatsion metodlardan foydalanadi, o'quvchilarning bilishga bo'lgan qiziqishini oshiradi va ularni mustaqil izlanishga yo'naltiradi. Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonida kreativ kompetensiyalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunki kreativ fikrlash o'qituvchining kasbiy faoliyatida uchraydigan muammolarni samarali hal etish, yangi pedagogik g'oyalarni ilgari surish va ta'lim jarayoniga innovatsiyalarni tatbiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli bo'lajak boshlang'ich sinif o'qituvchilarining kreativ faoliyatini takomillashtirishga xizmat qiluvchi pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish zarurati ortib bormoqda.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi ham aynan bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish, ularda kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish hamda innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirish bilan belgilanadi. Tadqiqotda kreativ faoliyatni takomillashtirish texnologiyalarining mazmuni, tarkibiy qismlari va ularni ta'lim jarayonida qo'llash imkoniyatlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov o'zining Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch asarida ma'naviyat va inson kamoloti masalalariga alohida to'xtalib o'tgan. Asarda ma'naviyatli insonning asosiy fazilatlarini sifatida ongli yashash, mustaqil va mantiqiy fikrlash, shuningdek, o'z qarashlarini asosli ravishda bayon qila olish kabi jihatlar ta'kidlangan. Jumladan, muallif: "Ongli yashaydigan, mantiqiy fikrlashga qodir bo'lgan, o'z qarashlarining ma'no-mazmunini har tomonlama asoslab, isbotlab bera oladigan odamlarni ma'naviyatli shaxs deb ayta olamiz", — deb ta'rif beradi [13].

Ilg'or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o'rganishadi va o'z faoliyatida ularni tatbiq eta oladilar. Kelgusida esa hamkasblari bilan erishilgan pedagogik yutuqlar va tajribalar

to'g'risida izchil va doimiy ravishda fikr almashib boradilar. Demak, har bir shaxsda tabiatan kreativlik qobiliyat mavjudligi ma'lum ekan, shaxs o'zidagi kreativlik qobiliyatini qanday namoyon eta oladi? degan haqli savol paydo bo'lishi aniq. Bu borada Patti Drapeau quyidagicha maslahat beradi: "Agarda o'zingizni kreativ emasman deb hisoblasangiz, hozirdanoq kreativ tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlarni tashkil eta boshlashingizni maslahat beraman. Aslida, gap sizning ijodkor bo'lganingiz yoki bo'lmaganingizda emas, balki ijodkorlik faoliyatni kreativlik ruhida tashkil etishingiz va yangi g'oyalarni amalda sinashga intilishingizdir"

Patti Drapeau fikriga ko'ra kreativ fikrlash, avvalo, muayyan bir masala yuzasidan har tomonlama fikrlash hisoblanadi. Har tomonlama fikrlash esa o'qituvchidan o'quv topshirig'i, masalasi va vazifalarini bajarish jarayonida juda ko'plab fikrlarga tayanishni talab qiladi [64].

Kreativlik salohiyati bilish jarayoniga yo'naltirilgan ijodkorlik bilan chambarchas aloqador. O'qituvchilar tomonidan kasbiy kompetentsiyalarni o'zlashtirish jarayonida ijodkorlik salohiyati an'anaviy tafakkur yuritishdan farqli ravishda quyidagilarda namoyon bo'ladi: [57].

Tafakkurning tezkorligi;

Yangi g'oyalarni yaratish qobiliyati;

Tashabbuskorlik;

Noaniqlikka toqat qilish;

Zakovatli bo'lish;

Muammolarni hal etishga nisbatan noodatiy yondashuv.

Zamonaviy o'qituvchining kreativ faoliyati quyidagi ko'rsatkichlar orqali namoyon bo'ladi:

Darsni noodatiy tashkil eta olish;

Mustaqil va ijodiy fikr yurita olish;

Muammoni innovatsion yondashuvlar orqali hal etish;

O'quvchilarda yangilikka qiziqish uyg'ota olish;

O'qitish metodikalarini yangilab borish;

Kreativ faoliyatni shakllantirish uchun pedagogik jarayonda yangi metodlar, texnologiyalar, muammoli o'qitish, loyiha asosida o'qitish, interfaol yondashuvlar keng qo'llanilishi zarur.

Hozirgi holat tahlili (diagnostika asosida)

Hozirgi vaqtda pedagogik oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda kreativ faoliyatga yetarlicha e'tibor berilmayapti. Bu holat quyidagilar orqali ko'rinadi:

Dars jarayonlarida ko'proq an'anaviy usullar qo'llaniladi, interaktiv va ijodiy metodlardan foydalanish ko'p hollarda cheklangan.

Kreativ fikrlashni shakllantiruvchi topshiriqlar, loyihalar va mustaqil izlanishlar yetarlicha yo'lga qo'yilmagan.

Ilmiy-nazariy manbalarda kreativlik tushunchasi keng yoritilgan bo'lsa-da, ularni amaliyotga joriy etish mexanizmlari hali ham yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Bo'lajak o'qituvchilarda o'z ustida ishlash, mustaqil izlanish, yangi metodlarni ishlab chiqish ko'nikmalari sust rivojlangan.

Ilmiy-nazariy manbalarda kreativ faoliyat yondashuvlari:

Faylasuflar talqiniga ko'ra, kreativlik insonning ichki dunyosi va tashqi olam bilan bog'liq bo'lgan murakkab mohiyat hisoblanadi. Kreativlik, yaratuvchanlik va yuqori darajadagi ijodkorlik subyektning faol ishtirokisiz yuzaga chiqmaydi hamda u ijodkor shaxsning individual xususiyatlari

bilan chambarchas bog'liqdir. Shu sababli kreativlik insonning o'ziga xos fikrlashi, yangilik yaratishga intilishi va mavjud muammolarga noodatiy yondashuvi orqali namoyon bo'ladi.

M.A.Xolodnaya va Soon Ye Hwang kreativlikning asosiy mezonlari sifatida originallik, anglanganlik, moslashuvchanlik va integrativlikni ko'rsatadilar. Ularning fikricha, aynan noodatiy fikrlash sifatlari kreativlikni intellektdan farqlab turadi hamda uni rivojlantirish va baholash imkonini beradi [73]. Zamonaviy ilmiy qarashlarda esa Ye. Ilin kreativlikni ko'p qirrali hodisa sifatida izohlaydi. Olimning ta'kidlashicha, kreativlikning rivojlanishi uchun insonda motivatsion, shaxsiy hamda kognitiv resurslar yetarli darajada shakllangan bo'lishi zarur [39].

T.A. Barisheva va Yu.A. Jigalova pedagogik nuqtai nazardan kreativlikni ko'p bosqichli va ko'p o'lchamli psixik sifat sifatida talqin qiladilar. Ular kreativlik tarkibiga nafaqat intellektual salohiyatni, balki motivatsiya, emotsional holat, estetik rivojlanish, kommunikativ qobiliyat va kompetentlik kabi omillarni ham kiritadilar [18].

Ken Robinson kreativlikni "o'z qiymatiga ega original g'oyalar majmui" deb izohlaydi. Howard Gardner esa kreativlikni shaxs tomonidan amalga oshiriladigan, yangilik va amaliy ahamiyatni o'zida mujassam etgan faoliyat shakli sifatida tavsiflaydi. Shuningdek, Teresa Amabile kreativlikni muayyan sohada chuqur bilimga ega bo'lish bilan bir qatorda, yuqori darajadagi noodatiy ko'nikmalarning mavjudligi bilan bog'laydi [65].

Tadqiqotchi M.N. Gnatko kreativlikni insonning ijodiy salohiyati va ijtimoiy-ijodiy faolligini namoyon eta olish qobiliyatini ifodalovchi shaxsiy sifat sifatida baholaydi. Olim ijod tushunchasini faoliyat natijasi bilan bog'lasa, kreativlikni esa subyektning individual imkoniyatlari va ichki xususiyatlari bilan izohlaydi.

O'zbek olimlari B.S.Abdullayeva, G.S.Ergasheva, A.A.Xasanova, H.T.Omonov, X.B.Norbo'tayevlarning tadqiqotlarida kreativlikning ta'limdagi o'rni, uning shaxs rivojiga ta'siri haqida fikrlar bayon etilgan. Ular kreativlikni o'quv jarayonining ajralmas elementi sifatida ko'rsatib, o'qituvchi shaxsida bu sifatni rivojlantirish zaruratini asoslab berganlar [17].

Shuningdek, MDH olimlari V.S. Bezrukova, L.S. Astafeva, M.A. Rozova kabi tadqiqotchilar o'qituvchi shaxsiy sifatlarining kasbiy yuksalishiga ta'siri haqida so'z yuritganlar. Ularning tadqiqotlarida kreativlikning psixologik komponentlari – o'zini namoyon qilish, mustaqillik, tashabbuskorlik, muloqotda ochiqlik kabi jihatlar asoslangan.

Xorijiy adabiyotlarda (A. Blackman, S. Godman, B. Dodge, S. Brindley va boshqalar) kreativ pedagogik yondashuvlar, interaktiv o'qitish usullari, o'quvchi markazli metodikalar bilan bog'liq holatlar keng yoritilgan. Ularning tajribalari bo'yicha kreativlik — XXI asr o'qituvchisining asosiy kompetensiyalaridan biri sifatida qaralmoqda.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning kreativ faoliyati quyidagi muammolar bilan to'qnash kelmoqda:

Amaliy kuzatuvlar asosida xulosa

O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarga yaratilayotgan shart-sharoitlar ularning nazariy bilimga ega bo'lishini ta'minlaydi. Biroq ijodiy yondashuv, amaliy mashg'ulotlarda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash va mustaqil ishlash faoliyati yetarli darajada rivojlanmagan. Bunga quyidagi omillar sabab bo'lishi mumkin:

O'quv dasturlarida kreativlik bilan bog'liq modullar yetarli emas;

O'qituvchi tayyorlov dasturlarida zamonaviy interfaol metodlar kam joriy qilingan;

Amaliyotdagi pedagoglar o'zlari ham kreativ faoliyatga tayyor emas.

Xalqaro tajriba bilan taqqoslash

Masalan, AQSh, Buyuk Britaniya, Singapur kabi davlatlarda bo'lajak o'qituvchilarning kreativ salohiyatini oshirish uchun maxsus treninglar, innovatsion loyihalarda ishtirok etish, "mentor-stajyor" tizimi, STEAM yo'nalishlari orqali amaliy mashg'ulotlar yo'lga qo'yilgan.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, kreativ faoliyatni shakllantirish uchun quyidagi komponentlar zarur:

O'qituvchining reflektiv yondashuvi (o'z faoliyatini tahlil qila olishi);

Mustaqil loyiha ishlari;

Ochiq darslar, interaktiv amaliyotlar;

Digital vositalardan foydalanish (grafik vositalar, raqamli dasturni qo'llash);

Kross-fanlararo integratsiya (masalan, texnologiya + san'at + matematika).

Muammoning yechimiga doir tavsiyalar (boshlang'ich tahlil asosida)

Pedagogik dasturlarni qayta ko'rib chiqish – kreativlikka yo'naltirilgan modullar sonini oshirish;

Kreativ topshiriqlar bazasini yaratish – talabalarni loyiha asosida ishlashga jalb etish;

Mentorlik asosidagi yondashuvlar – tajribali o'qituvchilar bilan hamkorlikda ijodiy loyihalar tashkil etish;

Kreativ baholash mezonlari – faqat nazariy bilim emas, balki ijodiy ishlanmalar bilan baholash;

O'quvchilarning kreativ salohiyatini o'rgatishda o'qituvchi namunasi – bo'lajak o'qituvchi o'zi kreativ fikrlovchi bo'lishi kerak

Amaldagi holatni tahlil qilish:

Hozirgi vaqtda pedagogik oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda kreativ faoliyatga yetarlicha e'tibor berilmayapti. Bu holat quyidagilar orqali ko'rinadi:

Dars jarayonlarida ko'proq an'anaviy usullar qo'llaniladi, interaktiv va ijodiy metodlardan foydalanish ko'p hollarda cheklangan.

Kreativ fikrlashni shakllantiruvchi topshiriqlar, loyihalar va mustaqil izlanishlar yetarlicha yo'lga qo'yilmagan.

Ilmiy-nazariy manbalarda kreativlik tushunchasi keng yoritilgan bo'lsa-da, ularni amaliyotga joriy etish mexanizmlari hali ham yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Bo'lajak o'qituvchilarda o'z ustida ishlash, mustaqil izlanish, yangi metodlarni ishlab chiqish ko'nikmalari sust rivojlangan.

Ilmiy-nazariy manbalarda kreativ faoliyat yondashuvlari:

O'zbek olimlari B.S. Abdullayeva, G.S. Ergasheva, A.A. Xasanova, H.T. Omonov, X.B. Norbo'tayevlarning tadqiqotlarida kreativlikning ta'limdagi o'rni, uning shaxs rivojiga ta'siri haqida fikrlar bayon etilgan. Ular kreativlikni o'quv jarayonining ajralmas elementi sifatida ko'rsatib, o'qituvchi shaxsida bu sifatni rivojlantirish zaruratini asoslab berganlar[17].

Shuningdek, MDH olimlari V.S. Bezrukova, L.S. Astafeva, M.A. Rozova kabi tadqiqotchilar o'qituvchi shaxsiy sifatlarining kasbiy yuksalishiga ta'siri haqida so'z yuritganlar. Ularning tadqiqotlarida kreativlikning psixologik komponentlari – o'zini namoyon qilish, mustaqillik, tashabbuskorlik, muloqotda ochiqlik kabi jihatlar asoslangan.

Xorijiy adabiyotlarda (A. Blackman, S. Godman, B. Dodge, S. Brindley va boshqalar) kreativ pedagogik yondashuvlar, interaktiv o'qitish usullari, o'quvchi markazli metodikalar bilan bog'liq holatlar keng yoritilgan. Ularning tajribalari bo'yicha kreativlik - XXI asr o'qituvchisining asosiy kompetensiyalaridan biri sifatida qaralmoqda.

O'qituvchi kreativ faoliyatining vazifalari. Umuman olganda, o'qituvchining kreativ faoliyati o'zining pedagogik faoliyatini va umuman butun faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan. Kreativ faoliyatda o'qituvchilar to'rtta asosiy turdagi muammolarni hal qilishadi:

- g'oyalarni ishlab chiqish (tatbiq etish);
- g'oyalarning rivojlanishi;
- pedagogik tajribalar o'tkazish;
- o'z tajribasi va ishlanmalarini uzatish.

Agar o'qituvchi amalga oshirish loyhasini amalga oshiruvchi yoki eksperiment o'tkazuvchi ishchi guruh tarkibiga kirsam, u guruhdagi vazifalarning taqsimlanishiga va uning ishini tashkil etish shakliga qarab undagi aniq muammolarni hal qiladi. Kreativ faoliyatning umumiy muammolarini hal qilish jarayonida o'qituvchilar turli xil aniq muammolarni hal qilishadi:

- o'z faoliyatining muammolarini tahlil qilish va aniqlash;
- o'qituvchi (masalan, sinf jamoalari) va umuman maktabning pedagogik jamoasini o'z ichiga olgan guruhlar faoliyatidagi muammolarni tahlil qilish va aniqlash;
- yangiliklarni izlash va baholash;
- innovatsion takliflarni ishlab chiqish;
- o'z faoliyatining yangi modelini loyihalash;
- maktabning kelajakdagi pedagogik tizimini loyihalashda ishtirok etish;
- amalga oshirish loyihalarini ishlab chiqishda yoki mustaqil ravishda ishlab chiqishda ishtirok etish;

eksperimental dasturlarni ishlab chiqishda yoki mustaqil ravishda ishlab chiqishda ishtirok etish;

amalga oshirish loyihalari va tajribalarini amalga oshirish natijalarini tahlil qilish va baholash;

amalga oshirish loyihalari va eksperimental dasturlarni amalga oshirish va boshqalar.

Bo'lajak o'qituvchilar o'zlarining innovatsion faoliyatida turli vazifalarni hal qilishlari mumkin. Ba'zilari faqat o'z faoliyatini takomillashtirishga e'tibor berishlari mumkin, boshqalari esa shu bilan birga butun jarayonning pedagogik tizimini rivojlantirishda faol ishtirok etishlari mumkin. Bo'lajak o'qituvchi kreativ faoliyatining operativ komponenti. Bo'lajak o'qituvchining kreativ faoliyat jarayonida bajaradigan asosiy vazifalari:

- tarbiyaviy faoliyat holatini tahlil qilish;
- g'oyalarni izlash va baholash;
- ta'lim tizimiga innovatsiyalarni joriy etish bo'yicha takliflar ishlabkiritish;
- o'zgarishlarni loyihalash;
- innovatsiyalarni joriy etish;
- tajribalarni tayyorlash va o'tkazish.

Yuqoridagi ko'rsatilgan vazifalar murakkab tuzilishga ega bo'lib turli maqsadlarga ega bo'lgan ko'plab harakatlardan iborat. Buni amalga oshirish loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish mazmunini tavsiflash hamda tajribalar o'tkazishdan yaqqol namoyon bo'ladi. Bo'lajak o'qituvchining innovatsion faoliyati muammolarini hal qilishga qaratilgan vazifani amalga oshirish usullari majmuasi uning operatsion tarkibiy qismini tashkil qiladi. Yechilayotgan vazifalardagi farqlar kreativ faoliyatning operativ komponentidagi farqlarni ham aniqlaydi. Ammo bir xil muammolarni turli yo'llar bilan hal qilish mumkin. Shuning uchun bo'lajak o'qituvchilarning kreativ faoliyatining operatsion komponentidagi farqlar ham ular

qo'llaydigan usullar bilan belgilanadi. Bo'lajak o'qituvchining shakllanish darajalari va kreativ faoliyati.

Kreativ faoliyat ham insonning boshqa faoliyati kabi turli darajada rivojlanishi mumkin. G.Xolboyeva va R.Shavkatovlar innovatsion faoliyatning shakllanish darajasini tavsiflab, to'rtta darajasini belgilab bergan. Bo'lajak o'qituvchi kreativ faoliyatining boshlang'ich darajasi yangilikka nisbatan beqaror munosabat bilan tavsiflanadi [53]. Yangi narsaga munosabat befarq, bilim tizimi va undan zarur pedagogik vaziyatlarda foydalanishga tayyorlik yo'q. Texnologik tayyorlik o'z tajribasidan foydalanish bilan bog'liq. Talabanning kasbiy-pedagogik faoliyati oldindan ishlab chiqilgan sxema, algoritm bo'yicha quriladi; ijodiy faoliyat amalda namoyon bo'lmaydi, malaka oshirish zaruratga qarab turli kurslar orqali amalga oshiriladi [52].

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Abdiyeva Q , Xolmurzayeva Y, "Boshlang'ich sinf o'quvchilarining steam ta'limi orqali o'z-o'zini rivojlantirish usullari", Practical problems and solutions to the use of theoretical laws in the sciences of the 21st century. Toshkent 2024.
2. Ismoilova M. "Boshlang'ich ta'limda innovatsiyalar". Toshkent, 2023.
3. Nuriddin B, Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ faoliyatini rivojlantirishda texnologiya fanining ahamiyati, "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali Tom 34.
4. Yakubova D. "STEAM — ta'limda yangicha yondashuv". Metodik qo'llanma.